



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## “BOBURNOMA”DA SODDA GAPLARNING SHAKLIY VA MAZMUNIIY AKS ETISHI THE STRUCTURAL AND SEMANTIC REPRESENTATION OF SIMPLE SENTENCES IN THE BABURNAMA

**Abdazova Gulsanam Inomjon qizi**  
Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti 2-bosqich tayanch doktorant  
E-mail: [gulsanamabdazova@gmail.ru](mailto:gulsanamabdazova@gmail.ru)  
DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./WENM6007](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./WENM6007)

**Annotatsiya.** *Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarining til va sintaksis xususiyatlari, ayniqsa sodda gaplarning shakliy (grammatik tuzilish, bog‘lanish vositalari – boshqaruv, moslashuv, bitishuv, izofa) va mazmuniiy (predikativlik, kesimning markaziy roli, ega va kesim munosabati) jihatdan o‘rganilishi yoritilgan. Asar tilining o‘z davri xususiyatlarini (fors-tojik ta’siri, ergash gaplar, yangi so‘z birikmalari) va hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi barqarorlik hamda o‘zgarishlarni qiyosiy tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Boburnoma”, Zahiriddin Muhammad Bobur, sodda gap, shakliy aks etish, mazmuniiy aks etish, sintaksis, kesim, predikativlik, boshqaruv, moslashuv, bitishuv, izofa, fors-tojik ta’siri, o‘zbek tili sintaksisi, tilshunoslik.*

**Annotation.** *The article examines the linguistic and syntactic features of Zahiriddin Muhammad Babur’s work Baburnama, with particular emphasis on the formal (grammatical structure, means of syntactic linkage – government, agreement, adjacency, izofa) and semantic (predictivity, the central role of the predicate, the relationship between subject and predicate) aspects of simple sentences. It provides a comparative analysis of the characteristics of the language of Babur’s era (influence of Persian-Tajik, emergence of subordinate clauses and new word combinations) alongside the elements of stability and change observable in the modern Uzbek literary language.*

**Keywords:** *Baburnama, Zahiriddin Muhammad Babur, simple sentence, formal representation, semantic representation, syntax, predicate, predicativity, government, agreement, adjacency, izofa, Persian-Tajik influence, Uzbek language syntax, linguistics.*

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari “Boburnoma” asari XVIII-XIX asrlardayoq dunyo sharqshunos olimlarining e’tiborini o‘ziga tortgan va ko‘plab sharq va g‘arb tillariga tarjima qilingan. O‘zbek olimlaridan Abdurauf Fitrat 1928-yilda asardan namunalarni chop qildirdi [Fitrat,1928]. “Boburnoma” birinchi marta o‘zbek tilida 1948-1949 yillarda o‘zbek olimlari P.Shamsiev va S.Mirzaevlar tomonidan nashr ettirildi. 1960-yilda yangi nashr bosmadan chiqdi.



1966, 1989, 1990-yillarda qayta nashr qilindi. O'zbek olimlari tomonidan “Boburnoma” asarining til xususiyatlarini o'rganish esa o'tgan asrning 60-yillarida boshlandi.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan 1993-yil Andijon tillar pedagogika institutida respublika ilmiy-amaliy anjumani tashkil etildi. Mazkur anjumanda tilshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor A. Nurmonov “Zahiriddin Muhammad Bobur – tilshunos olim” mavzusida ma'ruza qilib, Boburning tilshunoslikka qo'shgan hissasini ta'kidlab ko'rsatdi. Boburning o'zbek tili sayqallashuvida, badiiy, publitsistik, rasmiy va ilmiy uslubining shakllanishida katta iz qoldirgan ulkan so'z san'atkori ekanligi bilan birga, tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalarining rivojiga munosib hissa qo'shgan tilshunos olim ekanligini asardan olingan misollar asosida ko'rsatib o'tgan [A. Nurmonov, 1993:22-26].

Qadimgi turkiy til va so'nggi davrlar tilining sintaktik tuzilishi bilan hozirgi zamon tili sintaktik tuzilishini qiyoslar ekanmiz, o'zbek tili sintaksisida ham jiddiy o'zgarishlar bo'lganini ko'rish mumkin.

Shunisi xarakterliki, sintaksisdagi o'zgarishlar ko'pincha morfologiya va leksikada bo'lgan o'zgarishlar tufayli ro'y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste'moldan chiqishi so'zlarning boshqaruv munosabatini o'zgartiradi va hol doirasini kengaytiradi. Sintaksis taraqqiyotidagi ikkinchi omil- boshqa tillarning ta'siridir. Tarixda o'zbek tiliga ayniqsa fors-tojik tilining ta'siri sezilarli bo'lgan. Bu tilning ta'siri bilan yangi so'z birikmalari, ergash gaplar vujudga keldi. Ma'lumki, so'z birikmalari ikkiga bo'linadi: tobe birikmalar, teng birikmalar. Teng birikmalarda so'zlar o'zaro teng munosabatga kirishsa, tobe birikmalarda so'zlar o'zaro tobe-hokim munosabati orqali bog'lanadi. Tobe birikma tarkibidagi bosh va ergash so'zlar qanday vositalar bilan bog'lanishiga qarab, uch turga bo'linadi: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. Boshqaruv munosabatida ergash so'z bosh so'zning talabi bilan biror grammatik formada shakllanadi. Boshqaruvning ikki turi mavjud: kelishikli boshqaruv va ko'makchili boshqaruv. Kelishikli boshqaruvda bosh so'z va ergash so'z o'zaro tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigi yordamida bog'lanadi. Ko'makchili boshqaruvda bosh so'z bilan ergash so'z ko'makchilar yordamida munosabatga kirishadi: *Oxir mundoq sargardonliqtin va bu nav' bexonumonliqtin jong'a yettim. Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib yitsam yaxshi. Bu nav' xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog'im yetgancha ketsam yaxshi.* (Bobur BN). *Sulton Shahobuddin G'o'ryidin so'ng Sulton Feruzshohning oxir ahdi g'acha aksar Hinduston Dehli sultonining taxti zabtida jamdur.* (Bobur BN). Moslashuvli birikmada bosh so'z bilan ergash so'z shaxs-sonda o'zaro mos bo'ladi. Ular o'zaro qaratqich kelishigi yordamida bog'lanadi: *...ul navāhiniḡ cheriki bilā.*(BN). *Meniḡ g'animum qorg'anda edi* (BN). Bitishuv munosabatiga kirgan so'zlar faqat ohang yordami bilan bog'lanadi. Bunday munosabat sifat bilan ot, son bilan ot, olmosh bilan ot o'rtasida bo'ladi: *Bu tyshykni teshib, ul suvni ichādyrlār* (BN). *Ottызqыrq bərg*



*shāxynıñ üçidə bir yerdin-oq irikrək pənjə uradur* (BN). Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvdir. Izofa arab va fors tillariga xos bo'lib, turkiy tillardagi moslashuvli birikmaning o'zidir. O'zbek tili leksikasining juda katta qismini arab va fors so'zlari tashkil etgani uchun bu tillardan izofiy birikmalar ham juda ko'plab o'zlashgan. Misollar: *Bozi Dilgusho tarafida bir katta ko'cha bor erdi kim, aning ikki tarafida Bozi Padshoh va Bozi Chinor va Bozayra bozlar erdi* (BN). Arab va fors tillaridagi aniqlovchi-aniqlanmishning joylashuvi bilan o'zbek tilidagi aniqlovchi-aniqlanmishning o'rinlashuvi o'rtasida jiddiy farq mavjud. Arab va fors tillarida avval aniqlanmish keyin aniqlovchi kelsa, o'zbek tilida avval aniqlovchi so'ng aniqlanmish keladi.

Kesim gapning markaziy bo'lagi bo'lganligidan butun tavsifi – grammatik kategoriyalari: tasdiq-inkorlik, shaxs, zamon, kommunikativ maqsad va hokazolar kesimga qarab belgilanadi. Kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik rolini o'ynaydi. To'g'ri, kesim haqidagi bunday fikr-mulohazalar an'anaviy tilshunoslikda ham bor. Jumladan, A.G'ulomov shunday yozadi: “Kesim ega bilan o'zaro bog'langan bo'lib, gapning uyushtiruvchi markazlaridan biridir: u hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini (modallik, zamon va shaxsni) – predikativlikni ko'rsatuvchi eng muhim bo'lak bo'lganligidan gapning mazmunini, strukturasi, xarakterini belgilashda katta rol o'ynaydi, ega nutq predmetini-temani (gapning nima to'g'risida borishinigina) bildiradi, shu haqda nima deyilishini, xabarni, xarakteristikani kesim bildiradi” [Fyulomov, Asqarova. 2002: 84]. Olim hatto kesimning gapdagi eng zaruriy bo'lak ekanligini e'tirof etadi. Gapning shakllanishida kesim muhim rol o'ynashini aytadi: “Gapni maydonga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda kattadir: u kommunikatsiyada (aloqa – aralashuv, xabar berishda) asosiy vazifani bajaradi. Gapda kesimning ayrim bo'lak sifatida ifodalanmay qolishi kuchli sezilib turadi. Demak, gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan juda zich bog'langandir. Predikativ aloqaning ko'rsatkichlari, odatda, kesimda bo'ladi” [Fyulomov A., Asqarova M. 2002.]. Ma'lumki, gapning xarakterli belgilaridan biri predikativlikdir. Demak, kesim predikativ aloqaning muhim ko'rsatkichi, gap tushunchasi bilan juda zich bog'langan ekan, u gapda hokim bo'lak hisoblanishi kerak.

“Boburnoma” matni sintaksisi murakkab bo'lib, unda hozirgi adabiy til qoliplarini ham, o'ziga xos xususiyatlarini ham ko'rish mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tili gap qurilishi tizimi va “Boburnoma” matni sintaksisini 5 asr ajratib turibdi. Albatta, sintaktik tizimda stabillik nisbatan kuchli bo'ladi, ayni o'rinda, yillar davomida bu tizimda ham o'ziga xosliklar yuzaga keladi. “Boburnoma” o'z davri xususiyatlarini aks ettirgan memuar asar.

### Adabiyotlar:

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent: Sharq. 2002. – B. 378
2. Фитрат А. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. Тошкент, 1928.



3. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент.: Ижод, 2007.
4. Бобир. Танланган асарлар (Нашрга тайёрловчилар С.Азимжонов, А.Қаюмов) – Тошкент: 1958;
5. Бобур. Асарлар (Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев). 3жилдли. – Тошкент: Фан, 1965-66;
6. Бобур. Бобурнома (Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев). – Тошкент, 1960;
7. Хайриддин Султон. Бобурийнома. – Тошкент, 1996;
8. Нурмонов А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур-тилшунос олим // Бобур ва ўзбек миллий маданияти тараққиётининг айрим масалалари. – Андижон, 1993. – Б.22-26.
9. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Синтаксис. Т., 1987, 84